

Yangi hayot tumanida “Mahallada duv-duv gap” shiori ostida o‘tkazilgan madaniy- ma’rifiy tadbir



Bugun O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti tomonidan poytaxtimizning Yangi hayot tumanida “Mahallada duv-duv gap” shiori ostida o‘tkazilgan keng qamrovli madaniy-ma’rifiy tadbir o‘ziga xosligi bilan ajralib turdi.



“Marhamat”, “Gulshanobod”, “Yangi hayot”, “Oriyat” singari qator mahallarning ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalari, uyushmagan yoshlar, ehtiyojmand ayollar, keksa onaxonlari, nuroniy otaxonlar uchun tashkil qilingan konsert ochiq osmon ostida-stadionda o‘tkazildi.



Rang-barang janrlardan iborat musiqiy kechada O'zbekiston xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar, estrada xonandalari, institut professor-o'qituvchilari, talabalar tomonidan mumtoz ashulalar, barchani o'ziga jalb etuvchi sho'x qo'shiqlar ijro qilindi.



Ayniqsa xorazm yo'nalishida aytilgan qo'shiqlar hammani davraga raqsga chorlab, musiqiy kecha ishtirokchilari qalbiga cheksiz xursandchilik ulashdi. Institut talabalari tomonidan xalqimizning taniqli aktyorlari, xonandalari, qiziqchilarining ovozlariga qilingan taqlidlardan mahalla ahli yuziga tabassum yugurib, ularning kulgulariga sabab bo'ldi.



Institutdagi estrada xonandalarining chiqishlarini ayniqsa yoshlar katta xursandchilik bilan kutib olishdi. Kishilar qalbiga shodlik, xush kayfiyat ulashgan har bir chiqish ishtirokchilarning gulduros qarsaklari ostida kutib olindi va bu san'atkorlarni ruhlantirib turdi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan ana shunday tadbirlarni o'tkazish bo'yicha alohida konsepsiya ishlab chiqilgan. Unga asosan shahrimiz mahalllarida istiqomat qiladigan aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy kechalar 4 ta yo'nalishda olib boriladi.



Ular mumtoz musiqa, estrada musiqasi, teatr san'ati bo'yicha konsert dasturlari va uchrashuvlar, kinofilmlarni namoyish etish hamda kino namoyondalari bilan mahallalarda chiqishlarni tashkil qilish singarilardir.





Joriy yilning noyabr, dekabr oylari davomida institut tomonidan poytaxtimizdagi 65 ta mahallada ana shunday tadbirlarni tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Matbuot kotibi